

**ZAMONAVIY TELEVIDENIYEDA OVOZ DIZAYNI VA UNING AUDITORIYA
PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

Kurbaniyazov Rufat Karamatdin o'g'li – o'qituvchi

rufatqurbaniyazov1997@gmail.com

O'zDSMI Nukus filiali

**ЗВУКОВОЙ ДИЗАЙН НА СОВРЕМЕННОМ ТЕЛЕВИДЕНИИ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА
ПСИХОЛОГИЮ АУДИТОРИИ**

Курбаниязов Руфат Караматдин оглы – преподаватель

Нукусский филиал Узбекского государственного медицинского института

**SOUND DESIGN ON MODERN TELEVISION AND ITS IMPACT ON AUDIENCE
PSYCHOLOGY**

Kurbaniyazov Rufat Karamatdin ugli – teacher

Nukus branch of the Uzbek State Medical Institute

Tayanch so'zlar: ovoz dizayni, televideniye, psixoakustika, immersion effekti, media-psixologiya, ovoz rejissyori, auditoriya idroki, audio-vizual sintez, kognitiv yuklama, zamonaviy media.

Rezyume. Ushbu maqolada zamonaviy televideniye mahsulotlarini yaratishda ovoz dizaynining roli va uning tomoshabin psixologiyasiga ta'sir qilish mexanizmlari fundamental tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida ovozning vizual tasvir bilan sintezi, akustik muhitning inson idrokiga ta'siri va audio-vizual mahsulotning emotsional darajasini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratiladigan immersion effekti, psixoakustik stimulyatsiya va ularning auditoriya diqqatini ushlab turishdagi funksiyalari keng yoritib berilgan. Maqolada ovoz rejissyorining ijodiy va texnik faoliyati zamonaviy media-psixologiya prizmasi orqali ko'rib chiqiladi.

Ключевые слова: звуковой дизайн, телевидение, психоакустика, эффект иммерсивности, медиапсихология, звукорежиссер, восприятие аудитории, аудиовизуальный синтез, когнитивная нагрузка, современные медиа.

Резюме. В данной статье фундаментально исследуется роль звукового дизайна в создании современных телевизионных продуктов и механизмы его воздействия на психологию зрителя. В ходе исследования анализируются синтез звука с визуальным образом, влияние акустической среды на восприятие человека и значение звука в повышении эмоционального уровня аудиовизуального продукта. Также подробно освещаются эффект «иммерсивности», создаваемый с помощью современных технологий, психоакустическая стимуляция и их функции в удержании внимания аудитории. Творческая и техническая деятельность звукорежиссера рассматривается в статье через призму современной медиапсихологии.

Key words: sound design, television, psychoacoustics, immersion effect, media psychology, sound director, audience perception, audio-visual synthesis, cognitive load, modern media.

Summary. This article provides a fundamental study of the role of sound design in creating modern television products and the mechanisms of its impact on audience psychology. The research analyzes the synthesis of sound with visual imagery, the influence of the acoustic environment on human perception, and the significance of audio in enhancing the emotional resonance of audiovisual products. Furthermore, it explores the immersion effect created by modern technologies, psychoacoustic stimulation, and their functions in maintaining audience engagement. The creative and technical activities of the sound director are examined through the lens of contemporary media psychology.

KIRISH. Bugungi kunda televideniye shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki murakkab audio-vizual san'at turiga aylandi. Inson sezgi a'zolari ichida ko'rish va eshitish tizimlari axborotni qabul qilishda dominantlik qiladi. Ko'pincha tomoshabin e'tiborini tasvir sifatiga qaratsa-da, neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborotning yetmish foizdan ortiq emotsional yuklamasi va kognitiv talqini ayniqsa ovoz orqali shakllanadi.

Ovoz dizayni tushunchasi zamonaviy mediada nafaqat nutq va musiqani yozib olish, balki tomoshabin ongo ostiga maqsadli ta'sir etuvchi sun'iy akustik borliqni loyihalashni anglatadi. Televizion kontentning global bozorda raqobatbardoshligi uning auditoriyani qanchalik chuqur emotsional holatga tushira olishi bilan o'lchanadi. Bu murakkab jarayonda ovoz rejissyorining vazifasi oddiy texnik xizmat ko'rsatish doirasidan chiqib, yuqori darajadagi

psixologik interpretatorlik va dramaturgik mualliflik darajasiga ko'tariladi.

USULLAR. Mazkur ilmiy maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, nazariy-tahliliy, amaliy kuzatuv va kompleks yondashuv usullaridan foydalanildi. Xususan, ovoz dizaynining psixoakustik xususiyatlari va kognitiv ta'sirini o'rganishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilgan bo'lsa, amaliy jarayonlarni tahlil qilishda Qoraqalpog'iston televideniyesida suratga olingan "Sha'araq" teleseriali misolida empirik kuzatuv usuli qo'llanildi. Ovoz post-prodakshn jarayonlari audio-vizual sintez qonuniyatlari asosida tahlil qilindi.

NATIJAR VA MUNOZARA. Ovoz dizaynining nazariy asoslari va tarkibiy elementlari. Televideniya ovoz tizimi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uchta asosiy komponentdan iborat bo'lib, bular nutq, musiqiy kompozitsiya va maxsus akustik effektlardir. Ularning har biri inson psixikasida o'ziga xos assotsiativ zanjirni shakllantiradi. Nutq va intonatsiya auditoriya uchun eng birinchi informatsion kanal hisoblanadi. Boshlovchi yoki ko'rsatuv qahramoni ovozining tembri, tezligi, ritmikasi va urg'ulari tomoshabinda xabarga nisbatan ishonch, xavotir yoki qiziqish uyg'otishi mumkin. Masalan, past chastotali bariton ovozlar ko'pincha ekspertlik va barqarorlik hissini bersa, yuqori chastotali va tez nutq dinamikasi tomoshabinni hushyorlikka chorlaydi.

Musiqiy hamrohlik esa kadrda voqeaga nisbatan subyektiv munosabatni shakllantiruvchi eng kuchli quoldir. Musiqa yordamida hatto neytral tasvirlarni ham dramatik yoki komik tusga kiritish mumkin. Shu bilan birga, atmosfera va tabiiy shovqinlar, ya'ni shahar guvullashi, tabiat tovushlari yoki kundalik maishiy shovqinlar tomoshabinda "borliq simulyatsiyasi"ni yaratadi. Ushbu elementlarning sintezi natijasida kadr ortidagi dunyo tomoshabin uchun hayotiy va ishonchli reallikka aylanadi. Ovoz rejissyori ushbu komponentlarni mikshir qilish orqali tomoshabinning diqqat markazini (point of focus) vizual kadrda bog'lamagan holda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Psixoakustik ta'sir va auditoriya idroki mexanizmlari. Psixoakustika qonuniyatlariga ko'ra, inson miyasi ovozli signallarni vizual signallarga qaraganda sezilarli darajada tezroq qayta ishlaydi. Bu biologik ustunlik ovoz dizaynini samarali psixologik stimulyatsiya quroliga aylantiradi. Kognitiv yuklamani boshqarish jarayonida murakkab vizual sahnalarda ovoz yordamida tomoshabin diqqati eng muhim elementga yo'naltiriladi. "Selektiv eshitish" fenomeni orqali ovoz rejissyori fondagi shovqinlar darajasini sun'iy pasaytirib, asosiy detal tovushini (masalan, pichirlash yoki uzoqdan kelayotgan qadam tovushini) bo'rttirib ko'rsatadi.

Bu esa tomoshabinning diqqatini tarqoqlikdan qutqarib, uning kognitiv resurslarini kerakli nuqtaga jamlaydi. Emotsional lancharlash texnikasi zamonaviy televideniyaning ajralmas qismidir. Bunda muayyan takrorlanuvchi tovushlar yoki qisqa musiqiy motivlar orqali tomoshabinda o'tmishdagi xotira, ma'lum bir brendga nisbatan sodiqlik yoki muayyan hissiyot uyg'otiladi. Shuningdek, zamonaviy ovoz rejissurasida yuqori sezuvchanlikka ega mikrofonlar yordamida inson qulog'iga yaqin masofadagi tovushlarni (mikrodinamika) bo'rttirib ko'rsatish orqali tomoshabinda jismoniy yoqimlilik yoki aksincha, diskomfort hissini uyg'otuvchi sensor reaksiyalardan ham keng foydalanilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar va audio-vizual immersion. Raqamli texnologiyalar va ko'p kanalli ovoz tizimlarining rivojlanishi televideniyaning yangi texnologik va badiiy bosqichga olib chiqdi. Endilikda ovoz dizayni nafaqat ikki o'lchamli (stereo), balki chuqurlik, balandlik va kenglikka ega bo'lgan vertikal o'lchamdagi fazoviy tuzilmadir. Bu esa tomoshabinning virtual muhitga to'liq sho'ng'ishini (immersion) ta'minlaydi. Ayniqsa, jonli efir va sport translyatsiyalarida "ishtirok etish effekti" yaratiladi. Bunday yondashuv tomoshabinning ko'rsatuvni ko'rish davomiyligini va unga bo'lgan emotsional bog'liqligini o'ttiz foizdan ortiqroqqa oshirishi ilmiy asoslangan. Ovozli post-prodakshn bosqichida qo'llaniladigan zamonaviy filtrlar va fazoviy protsessorlar yordamida hatto studiya sharoitida yozilgan materialni ham ochiq maydon yoki maxsus akustik muhit simulyatsiyasiga aylantirish mumkin. Bu esa televideniya mahsulotning estetik qiymatini oshirish bilan birga, tomoshabinning ishonch darajasini ham mustahkamlaydi.

Amaliy tahlil: "Sha'araq" teleseriali misolida ovoz rejissurasi jarayonlari.

Nazariy qarashlarni amaliyot bilan bog'lashda Qoraqalpog'iston televideniyesi tomonidan suratga olingan "Sha'araq" teleserialini yaratish jarayoni o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Teleserial ustida ishlash jarayonida ovoz rejissyorining vazifasi nafaqat texnik sifatni ta'minlash, balki asarning badiiy-psixologik yaxlitligini yaratishdan iborat bo'ldi. Jarayonning eng mas'uliyatli bosqichi suratga olish ishlari yakunlangandan so'ng, montaj va undan keyingi post-prodakshn (ovozlashtirish) davrida namoyon bo'ldi. Maxsus dublyaj studiyasida olib borilgan ishlar jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratildi:

- *Ovozli dublyaj va personaj xarakteri:* Tasvirga olish maydonchasidagi shovqinlar va texnik cheklovlar tufayli, asosiy ovozlashtirish ishlari studiya sharoitida amalga oshirildi. Bunda


aktyorlarning emotsional holatini qayta tiklash, har bir soʻzning intonatsiyasini kadrğa mos ravishda sinxronlashtirish orqali qahramonlarning ichki dunyosi tomoshabinga yetkazib berildi.



(1-rasm. "Shaʼnaraq" teleserialini ovozlashtirish jarayoni)

- **Akustik muhitni yaratish:** Teleserialdagi oilaviy muhit va xonadon atmosferasini hayotiy aks ettirish uchun fon shovqinlari (atmosfera) ustida zargarlik ishlari olib borildi. Dublyaj studiyasidagi qizgʻin jarayonda har bir qadam tovushi, eshik gʻirillashi yoki maishiy shovqinlar qatlam-qatlam qilinib (layering), tasvirga realistik ruh bagʻishlandi.

- **Musiqiy va emotsional sintez:** "Shaʼnaraq" serialining dramatik chiziqlarini kuchaytirish maqsadida, musiqa va effektlar oʻrtasidagi muvozanatni (balance) saqlashga harakat qilindi. Bu esa tomoshabinning ekrandagi voqealarga nisbatan empatiya (hissiy yaqinlik) uygʻonishini taʼminladi



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir oʻgʻli S. A. MULTIFLIKATSIYA SANʼATI: TARIXI, TEXNOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI //Shokh Articles Library. – 2025. – T. 1. – №. 2.
2. Тилепов Қ. Н. КИНО—ТАРБИЯ ВОСИТАСИ //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 314-317.
3. Kurbaniyazov, Rufat. "THE MAIN CHARACTERISTICS OF SOUND." *Modern Science and Research* 3.2 (2024): 1180-1187.
4. Kurbaniyazov Rufat Karamatdin. "TELEVIDENIEDA OVOZ REJISSYORINING TUTGAN OʻRNI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.5 (2023): 659-664.
5. Kurbaniyazov Rufat Karamatdin. "TELEVIDENIE KECHA VA BUGUN." *Educational Research in Universal Sciences* 2.5 (2023): 665-672.

(2-rasm. "Shaʼnaraq" teleserialini musiqa va shumlar bilan boyitish jarayoni).

Ushbu tajriba shuni koʻrsatadiki, zamonaviy oʻzbek va qoraqalpoq teleseriallari ishlab chiqarishida ovoz rejissyorining studiyadagi mehnati — asarning badiiy muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ovoz rejissyorining ijodiy mahorati va etik masʼuliyati. Televideniya ovoz dizayni faqatgina texnologik yutuqlar bilan cheklanib qolmaydi, balki ovoz rejissyorining shaxsiy dunyoqarashi va badiiy didiga ham tayanadi. Ijodiy jarayonda ovoz rejissyori "akustik dramaturgiya"ni quradi. U qaysi tovushni birinchi planga chiqarishni va qaysi birini pasaytirishni hal qilish ekan, aslida voqelikning mohiyatini oʻzgartirish quvvatiga ega boʻladi. Bu jarayonda etik masʼuliyat ham yuzaga keladi, chunki ovoz yordamida tomoshabin fikrini manipulyatsiya qilish, unda sunʼiy qoʻrquv yoki haddan tashqari koʻtarinkilik uygʻotish mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy televideniya ovoz dizayni shunchaki texnik jarayon yoki tasvirga qoʻshimcha element emas, balki yuqori darajadagi psixologik muhandislik va mustaqil sanʼat turidir. Ovoz rejissyori tomonidan yaratilgan murakkab akustik muhit tomoshabinning axborotni qabul qilish sifatini, uning emotsional barqarorligini va kontentga boʻlgan munosabatini belgilab beruvchi asosiy omildir. Xalqaro tele-industriya tajribasi va soʻnggi ilmiy izlanishlar shuni koʻrsatadiki, ovoz sifatiga va uning psixofizik xususiyatlariga kiritilgan har qanday ijodiy investitsiya har doim reyting koʻrsatkichlarining oʻsishiga va media-mahsulotning ommaviylashishiga xizmat qiladi. Kelajakda sunʼiy intellekt va adaptiv audio tizimlarning yanada integratsiyalashuvi ovoz dizaynining auditoriya bilan individual, shaxsiylashtirilgan darajada ishlash imkoniyatlarini yaratadi, bu esa soha mutaxassislari oldiga yangi ijodiy ufqlarni ochib beradi.